

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI



TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY HISOBOTNING
XALQARO STANDARTLARI

FAN DASTURI

Bilim sohasi: 200000 – Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq

Ta'lif sohasi: 230000 – Iqtisod

Ta'lif yo'nalishi: 5230700 – Bank ishi va audit

Qarshi – 2022

Fan/modul kodi IFRSCB3106	O'quv yili 2022-2023	Semestr V-VI	ECTS - Kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lif tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 2/4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lif(soat)	Jami yuklama (soat)
	Tijorat banklarida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari	90	90	180
2.	<p>Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qtishdan maqsad - kelgusida yuqori malakali bank- mutaxassislar bo'lib yetishadigan talabalar uchun banklarda buxgalteriya hisobini tashkil etish, bank operatsiyalarini buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida buxgalteriya hisobida aks ettirish bo'yicha nazariy bilim berish orqali ko'nikmalar hosil qilishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi - talabalarga banklarda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida yuritish bo'yicha malakalarini hosil qilish va mustahkamlashdan iboratdir.</p> <p>Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. Moliyaviy hisobotning kelib chiqish tarixi va xalqaro standartlarning rivojlanishi</p> <p>Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari xaqida umumiy tushuncha. Bozor iqtisodiyoti sharoitida buxgalteriya hisobining o'mi va ahamiyati. Buxgalteriya hisobining xalqaro modellar BHXS Qo'mitasi - xalqaro tashkilot sifatida va uning vazifalari. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining tavsiflari. MHXS tarkibi va tuzilishi. O'zbekiston bank tizimida buxgalteriya hisobini MHXSga moslashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.</p> <p>2-mavzu. O'zbekiston Respublikasi banklarida MHXSlari asosida moliyaviy hisobotlarni tuzish asoslari</p> <p>Moliyaviy hisobotlarni tuzish tamoyillari. Moliyaviy hisobotlarning elementlari, moliyaviy ahvol va uni baholash. Aktivlar, majburiyatlar, kapital, moliyaviy natijalar. Moliyaviy hisobotlar elementlarini tan olish va tan olish mezonlari. Aktivlarni tan olish, majburiyatlarini tan olish, daromadlarni tan olish, harajatlarni tan olish. Moliyaviy hisobotlarning elementlarini baholash: dastlabki qiymat, joriy qiymat, tiklash qiymati, qoplanish qiymati va diskontlangan qiymat.</p> <p>3-mavzu. Banklarda hisob siyosatini shakllantirish.</p> <p>Banklarda hisob siyosati, uning maqsadi va tarkibi. Hisob siyosatiga qo'yiladigan talablar. Banklarda hisob siyosatini shakllantirish tamoyillari. Hisob siyosatining tarkibiy qismlari. Hisob siyosatida buxgalterlik baholashdagi o'zgarishlar va xatolarnig aks ettirilishi.</p>			